

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**“DAVLAT IQTISODIY SIYOSATI”
O‘QUV KURSINING**

**“DAVLATNING PUL-KREDIT SIYOSATI VA UNING ASOSIY
VOSITALARI” MAVZUSIDAN**

MA’RUZA MATNI

Ma’ruzachi: Xamidova Zulfiya Axmadjonovna


Toshkent 2022

5-MAVZU. DAVLATNING PUL-KREDIT SIYOSATI VA UNING ASOSIY VOSITALARI.

5.1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Inflyatsiya


Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablagʻlari toʻxtovsiz harakatda boʻladi, tovarlar va xizmatlarni ayirboshlash jarayonida resurslar uchun toʻlovlarni amalga oshirishda, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni toʻlashda pul qoʻldan qoʻlga oʻtib, aylanib turadi. **Pulning oʻz vazifalarini bajarish jarayonidagi toʻxtovsiz harakati pul muomalasi deyiladi.**

Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qoʻyilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat **pul tizimining** muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:



5.1-rasm. Pul tizimi.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. **Naqd pul muomalasiga** bank biletleri va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. **Naqd pulsiz hisoblar** cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, toʻlov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi **pul agregati** deb yuritiladi. **Muomalada mavjud boʻlgan pul massasi** naqd va kredit pullarni qoʻshish yoʻli bilan aniqlanadi.



5.2-rasm. Pul massasi va uning tarkibi (trln. so`m)¹.

Pul muomalasi o‘ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Muomalani ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan pul miqdori quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Muayyan davrda (masalan, bir yil davomida) sotilishi va sotib olinishi lozim bo‘lgan tovarlar summasi. Tovarlarni va xizmatlarni qancha ko‘p bo‘lsa, ularning narxi qancha baland bo‘lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko‘p pul miqdori talab qilinadi.

2. Pul birligining aylanish tezligi. Pul bir xil bo‘lmagan tezlik bilan aylanadi. Bu ko‘p omillarga, jumladan sotilayotgan tovarlar turiga, ularning xaridorgirligiga bog‘liq bo‘ladi. Pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori shuncha kam bo‘ladi.

3. Kreditning rivojlanganlik darajasi, puldan to‘lov vositasi sifatida foydalanish. Ko‘pincha tovarlar qarzga (kreditga) sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to‘lanadi. Demak, muomala uchun zarur

¹ O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy ma‘lumoti.

bo'lgan pul miqdori kredit miqdoriga muvofiq kamroq bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pul miqdoriga ehtiyojni ko'paytiradi. Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_m = \frac{T_b - X_k + X_t - O'_{x-k}}{A_t}$$

bu yerda:

P_m - muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori;

T_b - sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasi (tovarlar miqdori \times narxi);

X_k - kreditga sotilgan tovarlar summasi;

X_t - to'lash muddati kelgan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa to'lovlar summasi;

O'_{x-k} - o'zaro naqd pulsiz hisob-kitoblar

A_t - pulning aylanish tezligi.

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori pul muomalasi qonunini miqdoran ifodalaydi. Chunki muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga nisbatan muomalaga kam pul chiqarilsa, ko'pgina xo'jaliklarda pul etishmasligi, normal holatda xo'jalik yuritib bo'lmay qolish holati yuz beradi. Yoki, aksincha, muomalada bo'lgan pul miqdori sotilayotgan tovarlar va xizmatlar summasiga nisbatan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi uning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiyani bildiradi.

Pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olib, pul muomalasining quyidagi qonuniga ta'rif berish mumkin: **boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlar summasiga to'g'ri mutanosib, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosibdir.** Bunda sotishga chiqariladigan tovarlar summasi ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga va ularning narxiga bog'liq bo'ladi. Albatta bunda narx haqida gap ketganda AQSh iqtisodchisi

I.Fisher ko'rsatganidek, hamma tovarlarning o'rtacha narxi olinmaydi. Chunki, samolyot narxi bilan ruchka narxining o'rtachasini olib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir turdagi tovarning bozor narxida sotilgan summolari yig'indisi olinadi.



Ta'kidlash lozimki, pulning hamma tizimlari uchun pul muomalasi qonuni umumiy bo'lib, shu bilan birga oltin va qog'oz pul muomalasi qonunlarining o'ziga xos xususiyatlari va bir-biridan farqlari mavjud. Masalan,

1) oltin pul muomalada bo'lganda:

a) ortiqcha oltin pul xazinaga jalb qilinib, zaxirada to'planib boradi, zarur bo'lganda muomalaga yoki har xil bezaklar uchun foydalanishga chiqariladi;

b) tovarlar hajmi ko'payib, muomala uchun qo'shimcha pul zarur bo'lganda xazinadagi oltin pullar muomalaga kiritiladi. Shu yo'l bilan muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori o'z-o'zidan tartiblanadi.

2) Muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori tovarlar qiymatining miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda, oltinning o'z qiymatiga nisbatan esa teskari mutanosiblikda o'zgaradi:

a) oltin pul qiymati va tovarlar hajmi o'zgarmagan taqdirda tovarlar qiymati qancha past bo'lsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ham shuncha kam bo'ladi. Agar tovarlar qiymati o'zgarmasa, pulning miqdori tovarlar hajmining ortishiga qarab unga mutanosib ravishda ko'payadi;

b) agar tovarlar hajmi va qiymati o'zgarmaydi, deb faraz qilsak, muomaladagi oltin pul miqdori oltinning o'z qiymatiga qarab o'zgaradi, ya'ni uning qiymati oshsa, pul miqdori kamayadi, qiymati pasaysa, pul miqdori ko'payadi.


Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi. Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun $M_1 \dots M_n$ pul agregatlari yoki tarkibiy qismi tushunchasidan foydalaniladi. **Barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul**

massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi.

Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

M0 – muomaladagi naqd (qog‘oz va metall) pullar.

M1 = M0 + aholining joriy hisob varaqlaridagi pul qoldiqlari, korxonalarining hisob varaqlaridagi pul mablag‘lari, banklardagi talab qilib olish mumkin bo‘lgan pul omonatlari.



M2 = M1 + tijorat banklaridagi muddatli omonatlar va jamg‘arma hisob varaqlaridagi pullar, ixtisoslashtirilgan moliyaviy muassasalardagi depozitlar va boshqa aktivlar. Mazkur agregat tarkibiga kiruvchi pul mablag‘larini bevosita bir shaxsdan boshqa biriga o‘tkazish hamda ayirboshlash bitimlarida foydalanish mumkin emas. Ular asosan jamg‘arish vositasi vazifasini bajaradilar.

M3 = M2 + bank sertifikatlari + aniq maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Bundan ko‘rinadiki, pul massasining har bir alohida agregati o‘zining likvidligi darajasiga ko‘ra farqlanadi. **Likvidlik – bu turli aktivlarning o‘z qiymatini yo‘qotmasdan (ya’ni eng kam xarajatlar asosida) tezlik bilan naqd pulga aylana olish qobiliyatidir.** Metall (tanga) va qog‘oz pullar eng yuqori likvidlikka ega bo‘ladi. Mijoz o‘zi istagan vaqtda olishi mumkin bo‘lgan bank hisob varaqlaridagi pul omonatlari ham likvidli hisoblanadi. Pul massasi tarkibiga to‘lov vositasi vazifasini bajarish layoqati pastroq bo‘lgan aktivlar qo‘shilib borishi bilan, ularning likvidlik darajasi ham pasayib boradi.

Pul bozori – bu mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag‘lariga bo‘lgan talab va pul taklifining o‘zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm.

Pul taklifi – bu bozorda pul sifatida muomalada bo‘lgan turli-tuman moliyaviy mablag‘lar, ya’ni pul agregatlari yig‘indisi hisoblanadi.

Mamlakatdagi pul taklifi asosan Markaziy bank tomonidan tartibga solinsada, u iqtisodiyotdagi barcha taklifni qamrab ololmaydi. Chunki, bu jarayonga uy xo‘jaligi xatti-harakati hamda tijorat banklarining siyosati ham ta’sir ko‘

Inflatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy beqarorlikning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, hozirgi davrda barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgan holat hisoblanadi.

«**Inflatsiya**» atamasi (lotincha inflation – shishmoq, kengaymoq) ilk bora Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi davrida qo‘llanilib, muomalada qog‘oz pullarning haddan ortiq ko‘payib ketishini ifodalagan edi. Iqtisodiy adabiyotlarda esa bu atama XX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng tarqaldi. Inflatsiya tushunchasi juda serqirra bo‘lib, iqtisodiy adabiyotlarda uning ko‘plab izohlari mavjud. (1-jadval)

5.1-jadval. Indflyatsiya tushunchasiga mualliflik ta`riflari.

№	Mualliflar	Atama	Ta`rif
1.	Чепурин М.Н. и др.	Inflatsiya	bu pul massasining tovar aylanmasi ehtiyojlariga nisbatan ortib ketishi natijasida pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o‘shidir ² .
2.	Борисов Е.Ф.	Inflatsiya	bu muomala sohasining pul belgilari bilan milliy xo‘jalik haqiqiy ehtiyojlaridan ortiqcha miqdorda to‘lib ketishi ³ .
3.	Камаев В.Д.	Inflatsiya	bu iqtisodiy tizimda narx o‘shishining barqaror tendensiyasi orqali ifodalanuvchi makroiqtisodiy hodisa ⁴ .
4.	Видяпина В.И.	Inflatsiya	muomalada mavjud bo‘lgan naqd qog‘oz pullar yoki naqd bo‘lmagan qog‘oz pul hajmining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan tashqari ko‘payib ketishi; - pullarning xarid qobiliyatining pasayishi; - uzoq davr mobaynida narxlarning umumiy o‘shishi ⁵ .

Bu ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, inflatsiya tushunchasini yoritishda bir tomonlama yondashishga yo‘l qo‘yilib, uning mazmunini to‘la va yyetarli darajada

² Курс экономической теории. Учебное пособие под ред. Чепурина М.Н., Киселевой Е.А. Киров, изд. «АСА», 1995. – 423-б.

³ Борисов Е.Ф. Экономическая теория: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, 170-б.

⁴ Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, 416-б.

⁵ Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 538-б.

ochib bera olinmagan. Inflatsiyani to'g'ri tushunish uchun pulning qadrsizlanishini va uning sabablarini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Pulning qadrsizlanishi faqatgina qog'oz pullargagina xos bo'lgan hodisa emas, u hamma pullarga, jumladan metall (oltin) pullarga ham xosdir. Oltin pul quyidagi ikki holatda qadrsizlanadi:

1) oltin qazib olish texnologiyasi takomillashib, yangi texnikalarni qo'llagan holda mehnat unumdorligining oshishi va, binobarin, oltin qiymatining pasayishi natijasida. Agar boshqa tovarlar qiymati o'zgarmagan holda oltin qiymati ikki barobar pasaygan, deb faraz qilsak, u holda tovarlar odatdagi hajmlarining muomalasi uchun ikki barobar ko'proq oltin pul kerak bo'ladi. Demak, bu holatda tovarlar narxi oshib, oltin pulning qadrsizlanishi ro'y beradi;

2) ba'zi iqtisodchilar metall pullarning qadrsizlanishini qadimdan ma'lum bo'lgan metall pullarni soxtalashtirish jarayoni bilan ham bog'laydilar. Qadimgi Gretsiya, Rim imperiyasida eramizga qadar va keyinchalik boshqa davlatlarda ham oltin va kumush tangalar tarkibini nisbatan arzon metallar aralashtirish yoki ularning og'irligini o'zgartirish orqali soxtalashtirish holatlari uchrab turgan. Bu esa metall pullarning o'z qadrini yo'qotishini keltirib chiqargan.

Boshqa holatlarda oltin yoki kumush pullar muomalada bo'lgan chog'da ularning qadrsizlanishi, ya'ni inflatsiya jarayoni ro'y bermaydi. Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar hajmidan ortiqcha bo'lgan pul massasi – oltin va kumush tangalar xazinaga aylanadi. Aksincha, iqtisodiyotda tovarlar ko'payib, muomala vositasini bajarish uchun pul yetishmagan taqdirda ularni osonlik bilan jamg'arma tarkibidan chiqarib, muomalaga kiritilgan. Bu esa boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda oltin va kumush pullar inflatsiyaga uchramasligini anglatadi.

Qog'oz pullar inflatsiyaga uchraganda uch xil narsaga nisbatan qadrsizlanadi:

1) oltinga nisbatan – bu oltinning qog'oz pullarda bozor narxining oshishida o'z ifodasini topadi;

2) tovarlarga nisbatan – bu tovarlar narxining oshishida o'z ifodasini topadi;

3) bardoshli chet el valyutalariga nisbatan – bu chet el valyutalariga nisbatan milliy pul kursining tushib ketishida o'z ifodasini topadi.

Inflatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan o‘lchanadi. **Narxlar indeksi joriy davrdagi iste‘mol narxlarini bazis davrdagi iste‘mol narxlariga nisbati orqali aniqlanadi:**

$$NI = \frac{TN_j}{TN_b} \times 100\%$$

bu yerda:


NI – narxlar indeksi;

TN_j – joriy davrdagi iste‘mol tovarlari narxi;

TN_b – bazis davrdagi iste‘mol tovarlari narxi.

Narxlar o‘zgarishini hisobga olish qamroviga ko‘ra narxlar indeksining quyidagi turlarini hisoblash mumkin:

- iste‘mol narxlari indeksi;
- ulgurji narxlar indeksi;
- narxlar indeksi – YaIM deflyatori;
- eksport va import narxlar indeksi.



5.3-rasm. Iste‘mol narxlari indeksi va uning asosiy komponentlari⁶ (yillik hisobda, foizda)

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining rasmiy ma‘lumoti.

Yuqoridagi grafikda 2020-2021 yillarda O'zbekistonda iste'mol narxlari indeksi va uning asosiy komponentlarini ko'rish mumkin. (5.3-rasm)

Narxlar indeksidan foydalangan holda **inflatsiya sur'atini (IS)** quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$IS = \frac{TN_j - TN_b}{TN_b} \times 100\%$$


Masalan, iste'mol tovarlarining narx indeksi 2008 yilda 112,6% ga, 2007 yilda 116,8% ga teng bo'lsa, inflatsiya sur'ati quyidagicha bo'ladi:

$$\text{Inflatsiya sur'ati} = \frac{116,8 - 112,6}{112,6} \times 100 = 3,7\% \text{ foiz.}$$

Kelib chiqish sabablari va o'sish sur'atlariga qarab, inflatsiyaning bir qancha turlarini farqlash mumkin.

1. Talab inflatsiyasi. Narx darajasining an'anaviy o'zgarishi jami talab ortiqchaligi bilan tushuntiriladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi mahsulotning real hajmini ko'paytirib, ortiqcha talabni qondira olmaydi. Chunki barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan bo'ladi. Shu sababli bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib keladi va talab inflatsiyasini keltirib chiqaradi. Talab inflatsiyasini quyidagi chizma orqali izohlash mumkin (5.1-chizma).

5.1-chizma




Chizmadan ko‘rinadiki, iqtisodiyotdagi pul hajmining ko‘payishi qisqa muddat ichida yalpi talabni AD_1 dan AD_2 ga siljishiga olib keladi. Agar bu vaqtda iqtisodiyotning holati yalpi taklif egri chizig‘ining oraliq (2) yoki tik (klassik) (3) kesmasiga mos kelsa, bu narx darajasining o‘shishiga, ya’ni talab inflatsiyasining ro‘y berishiga olib keladi.

2. Taklif inflatsiyasi. Inflatsiya ishlab chiqarish xarajatlari va bozordagi taklifning o‘zgarishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarning o‘shishi natijasida kelib chiqadigan inflatsiya mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko‘payishi hisobiga narxlarning oshishini bildiradi. Bu holatni ham chizma orqali ko‘rib chiqamiz (5.2-chizma).

5.2-chizma

Taklif inflatsiyasi



Chizmadan ko‘rinadiki, xarajatlarning o‘shishi natijasida yalpi taklif egri chizig‘ining AS_1 dan AS_2 ga qisqarishi mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi xarajat miqdorini oshirib, narxlarning R_1 dan R_2 darajaga qadar ko‘tarilishiga, real ishlab chiqarish hajmining esa Q_1 dan Q_2 ga qadar qisqarishiga olib keladi.

Shuningdek, inflatsiyaning quyidagi sabablarini ham ko‘rsatish mumkin:

- monopolistik faoliyatlarning paydo bo‘lishi va amal qilishi;
- noto‘g‘ri soliq siyosati yuritish;
- jahon bozorlaridagi narxlarning o‘shishi;
- harbiy sohadagi xarajatlarning o‘shishi va hokazo.

5.1-jadval

Yillik, yil boshidan va oylik inflyasiya dinamikasi⁷

Yil	O'tgan vaqt o'ralig'iga nisbatan (%)	O'tgan yilning shu oyiga nisbatan (%)
01.12.2021	1,3	10,0
01. 09. 2021	1,1	10,8
01.05. 2021	0,5	10,9
01.01. 2021	1	11,6
01.12. 2020	1,6	11,1
01.09. 2020	1,4	11,7
01.05. 2020	0,3	14,0
01.01. 2020	0,6	14,3
01.12. 2019	1,7	15,2
01.09. 2019	1,3	16,0
01.05. 2019	0,7	13,7
01.01. 2019	1,5	13,0
01.12. 2018	2,1	14,3
01.09. 2018	1,8	16,2
01.05. 2018	0,8	19,0
01.01. 2018	2,7	20,1
01.12. 2017	4,1	18,8
01.09. 2017	1,3	15,8
01.05. 2017	1,3	12,5
01.01. 2017	1,5	9,6
01.12. 2016	1,8	9,7
1.09. 2016	1,4	9,1
01.05. 2016	0,2	7,7
01.01. 2016	1,6	8,9

Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi iqtisodiyotda foydani va mahsulot hajmini qisqartiradi. Natijada tovarlar taklifi ham qisqaradi. Bu o'z navbatida narx darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari nominal ish haqi, xomashyo va energiya narxlarining o'sishi hisobiga ortib boradi.

Inflatsiyaning o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflatsiya kabi turlari ham mavjud. **O'rmalab boruvchi inflatsiya** holatida narxlar yiliga 10 foizgacha, **jadal**

⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

inflatsiyada 20 dan 200 foizgacha, **giperinflatsiyada** 200 foizdan yuqori darajada o'sishi kuzatiladi.

Bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflatsiya farqlanadi. **Kutilayotgan inflatsiya** va uning oqibatlarini oldindan bashorat qilish mumkin, **kutilmagan inflatsiyani** oldindan aytib bo'lmaydi. Birinchi holda inflatsiyaning kutilayotgan salbiy oqibatlariga tayyorlanib, uni sezilarli darajada yumshatish mumkin. Ikkinchi holda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy ahvolidan sezilarli yomonlashuvi ro'y berishi mumkin.

5.2. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul doimiy va uzluksiz harakatda bo'lishi lozim. Buning uchun esa bo'sh pul mablag'lari ham pul-kredit muassasalari orqali to'planib, iqtisodiyotga investitsiyalar sifatida yo'naltirilishi lozim. Bu jarayonlarni amalga oshirishda **kredit munosabatlari** muhim ahamiyat kasb etadi.



Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital **ssuda kapitali** deyilsa, uning harakati **kreditning mazmunini** tashkil qiladi.


Kredit munosabatlari ikki sub'ekt o'rtasida, ya'ni pul egasi (qarz beruvchi) va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi.

Turli xil korxonalar va firmalar, tashkilotlar, davlat va uning muassasalari hamda aholining keng qatlami **kredit munosabatlarining sub'ektlari** hisoblanadi. Sanab o'tilgan sub'ektlarning aynan har biri bir vaqtning o'zida ham qarz oluvchi va ham qarz beruvchi o'rnida chiqishi mumkin.

Kredit munosabatlarining ob'ekti jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir.

Takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag‘larining doiraviy aylanishi **kredit munosabatlarining** mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga doiraviy aylanish jarayonida muqarrar sur‘atda vaqtincha bo‘sh turadigan pul mablag‘lari va boshqa pul resurslari **kredit mablag‘larining manbaini** tashkil qiladi.

Kredit resurslarining **asosiy manbalari** quyidagi chizma orqali ko‘rish mumkin:
(5.1-chizma)



5.1-chizma. Kreditning asosiy manbalari

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo‘sh pul resurslari hosil bo‘lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo‘g‘inlari va sohalarida qo‘shimcha pul mablag‘lariga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Kreditning bir qator vazifalari mavjud:

Birinchidan, kredit **qayta taqsimlash vazifasini** bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo‘sh pul mablag‘lari ssuda fondi shaklida to‘planib, keyin bu mablag‘lar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni **xo‘jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini** bajaradi.


Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan **muomala xarajatlarini tejash vazifasini** bajaradi.

To'rtinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali **iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini** bajaradi.

Beshinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy sub'ektlar faoliyati ustidan **nazorat qilish vazifasini** bajaradi.

Nihoyat, kreditning o'ziga xos vazifasi **iqtisodiyotni tartibga solish** hisoblanadi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi.

Kredit bir qator turlarda amalga oshiriladi. Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki – pul va tovar shakllaridan foydalanib kelingan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida **pul kreditidan** kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste'mol va xalqaro kredit shakllarini oladi. (5.4-rasm)



5.4-rasm. Kredit turlari

Bank krediti – pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilar (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori)ga pul ssudalari shaklida beriluvchi kredit. Bank krediti yo'nalishi, muddati va kredit



bitimlari summasi bo'yicha cheklanmaydi. Uning foydalanish sohasi ham juda keng, tovar muomalasidan tortib kapital jamg'arilishigacha xizmat qiladi.

Xo'jaliklararo kredit – bir korxonalar (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriluvchi kredit. U korxonalarining kapital qurilish, qishloq xo'jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.


Tijorat krediti – korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bir-biriga beradigan krediti. Tijorat krediti, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi.

Iste'mol krediti – xususiy shaxslarga, birinchi navbatda, uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladigan kredit. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarning haqini kechiktirib to'lash bilan sotish shaklida yoki iste'mol maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste'mol kreditidan foydalanganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi.

Ipoteka krediti – ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi kredit. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Davlat krediti – davlat pul mablag'lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadigan kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli. Davlat krediti mablag'lari manbai bo'lib, davlat qarz obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklida, avvalo, davlat byudjeti kamomadini qoplash uchun foydalanadi.

Xalqaro kredit – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyon etuvchi shakli. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.



So'nggi vaqtlarda kreditlashning lizing, faktoring, forfeyting, trast kabi shakllari keng rivojlanib bormoqda.

Lizing — moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi. Bunda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyektini lizing oluvchining mulki bo'lib o'tsa;
- lizing shartnomasining muddati lizing obyektini xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo'lsa yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining yigirma foizidan kam bo'lsa;
- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obyektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to'lab sotib olish huquqiga ega bo'lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obyektini qiymati asos bo'ladi;

- lizing shartnomasi davri uchun lizing to'lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing obyektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining to'qson foizidan ortiq bo'lsa. Joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymat buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Lizing uch taraflama (sotuvchi — lizing beruvchi — lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi — lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo'shimcha ravishda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi⁸.

Faktoring - xo'jalik yurituvchi subyektlar - yetkazib beruvchilarni moliyalashga doir bank xizmatlarining bir turi bo'lib, bunda ular bank - moliyaviy agentga yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovchilar tomonidan akseptlangan, lekin to'lov talabnomalari bo'yicha haqi to'lanmagan to'lovni, regress huquqisiz, olish huquqini beradilar. Banklar faktoring operatsiyalarini ularning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvaraqlari joylashgan yerdagi mijozlar bilan shartnomalar asosida amalga oshiradilar. Faktoring xizmatlarini ko'rsatish asosida to'lovchi tomonidan moliya agentiga pul talabini bajarish muddatlari 90 kundan oshmasligi kerak. Banklar to'lovchilardan qarzni undirish bo'yicha ushbu muddatda to'lanmagan majburiyatlarga doir choralarni qonunlarda belgilangan tartibda ko'rishlari kerak⁹.

Forfeyting – faktoring munosabatlarining uzoq muddatli shakli. Bunda qarzdorlik bo'yicha huquqlarni sotib olgan bank ularni odatda 1-5 yil vaqt o'tgandan so'ng undirishi mumkin bo'ladi.

Trast – bu mijozlarning kapitallarini boshqarish bo'yicha operatsiyalar majmui.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida" gi Qonuni. 14.04.1999 yildagi 756-I-son.

⁹ Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2000-yil 15-iyul.

Qarzga berilgan ssudaning albatta qaytarilib berilishi, undan foydalanilganlik uchun olingan foydadan ssuda foizini to'lash zarurati korxonalarni xo'jalik yuritishning eng samarali usullarini izlab topishga undaydi.

Qarzga (ssudaga) berilgan pul hisobiga olinadigan daromad foiz yoki foizli daromad deyiladi. Shu daromad (foiz)ning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi foiz stavkasi yoki foiz normasini tashkil qiladi:

$$r' = \frac{r}{K_{\text{ssuda}}} \cdot 100,$$

bu yerda:

r' – foiz normasi;

r – foiz summasi;

K_{ssuda} – qarzga berilgan pul (kapital) summasi.


Agar 100 ming so'm yiliga 20 ming ssuda foizi to'lash sharti bilan qarzga berilgan bo'lsa, ssuda foizi normasi 20% ni tashkil qiladi.

5.2. O'zbekistonning bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini ta'minlashda banklar muhim rol o'ynaydi. **Banklar pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasadir.**

Banklar faoliyatining asosiy tomonlaridan biri kredit munosabatlariga xizmat qilish bo'lib, ular kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi.

Bank tizimi – bu ma'lum tarixiy davr ichida shakllangan va tegishli qonun




hujjatlari asosida mamlakatda pul-kredit munosabatlarini tashkil etadigan va tartibga soladigan muassasalar majmuidir. Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga **markaziy (emission) bank** va **tijorat (depozitli) banklarning** tarmoq otgan

shaxobchalarini oladi.

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Markaziy bank mazkur tizimning bosh banki bo'lib, pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi va milliy pulning barqarorligini ta'minlovchi muassasa hisoblanadi. 1995 yil 21 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 9 ta bo'lim va 60 ta moddadan iborat. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Qonuni «O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki To'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi¹⁰. (O'RQ-582-son 11.11.2019 yil)



Markaziy bank maqomi va maqsadlari «O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasida belgilangan: «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs bo'lib, faqat davlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi **Markaziy banki** - iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa, o'z xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega».

Qonunning 3-moddasida «Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat» deb, qayd qilinadi. Narxlarning barqarorligini ta'minlash va milliy pul birligini xorijiy valyuta bozorlarida

¹⁰ <https://lex.uz/ru/docs/4590452>.

ayirboshlash kursining barqaror bo'lishiga erishishni ko'zda tutuvchi bu maqsad davlatning iqtisodiy siyosatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'rnida juda muhim ekanligini belgilaydi.

Mamlakatda pul muomalasi samarali bo'lishi va moliya muassasalari faoliyatining ishonchliligi pul-kredit, valyuta siyosati strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda uning mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur.

Mamlakat xalq xo'jaligini kreditlash ko'rsatkichlarini tijorat banklarini qayta moliyalashga doir kredit hajmlarini va foiz stavkalarini belgilash yo'li bilan tartibga solish, valyuta-kredit siyosatini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqil siyosiy sohasi hisoblanadi. Mustaqil siyosat esa pul va valyuta bozorida yuzaga kelayotgan vaziyatni, ichki bozordagi makroiqtisodiy shart-sharoitni, tashqi omillarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu holat qonunning 6-moddasida «Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida qaror qabul qilishda mustaqildir» deb tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi. Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tavsiyasi bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.



Qonunning 2-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs sifatida ko'chmas mulk va moliyaviy resurslarga egalik qiladi. Bu hol uning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlaydi va mustaqil pul-kredit siyosatini samarali o'tkazish imkoniyatini beradi.

Narxlarga va ayirboshlash kurslariga ta'sir ko'rsatadigan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bevosita nazorati va ta'sirida bo'lmagan turli omillar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy maqsadiga erishishini murakkablashtirishi mumkin. Shunga qaramay, chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, aynan Markaziy bank makroiqtisodiy jarayonlarning rivojlanish

yoʻnalishini, birinchi galda pulning qadrsizlanish surʼatini va valyuta kursini belgilashni idora qiladi.

Qonunda Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga vakolatlar berish bilan bir qatorda, uning uchun taʼqiqlangan faoliyat turlari ham aniq belgilab berilgan. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tijorat faoliyati bilan shugʻullanish, muassasa yoki tashkilotlarga moliyaviy yordam koʻrsatish taʼqiqlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga korxonalar va tashkilotlar faoliyatida bank hamda yuridik shaxslar sifatida ishtirok qilishga ruxsat etilmaydi. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bank oʻz vakolatlaridan foydalanishda barcha yuridik shaxslarni baravar koʻrishi lozim.

Milliy valyutaning barqarorligini taʼminlash uchun Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarni hal etadi. Ulardan eng **asosiy vazifalar** sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:



Iqtisodiyotni pul-kredit vositasida boshqarish, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi sifatida uning asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqish va «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʻrisida»gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq keyingi moliya yili boshlanishiga

uzog'i bilan 30 kun qolganda bu haqda Oliy Majlisga axborot beradi. Markaziy bank pul taklifi hajmini o'zgartirib, ishlab chiqarishning umumiy hajmiga, bandlik darajasiga va korxonalar faoliyatining o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotdagi tanglik davrida pul taklifi hajmining oshirilishi iste'mol va sarmoyaga bo'lgan talabning o'sishiga, binobarin, bandlik, ishlab chiqarish hajmi ortishiga yordam beradi. Pul yuqori sur'atlarda qadrsizlanayotgan sharoitda Markaziy bank ularni sekinlashtirish zarurligidan kelib chiqib muomaladagi pul miqdorini cheklash siyosatini o'tkazadi, natijada iqtisodiyotda unga bo'lgan talab kamayadi, pul bozorlaridagi foiz stavkalari o'zgaradi, pulning qadrsizlanishi kamayadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari, pul massasi o'zgarishining aniq maqsadli mo'ljallari va pul muomalasini tartibga solish vositalari qonunning 4-qismida yoritilgan bo'lib, unda Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini bir yilga ishlab chiqadi va ular Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan so'ng u mukammal dastur sifatida qabul qilinadi. Bu dastur iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miqdorining yillik o'stirish sur'atlarining maqsadli ko'rsatkichlarini, kredit, foiz va valyuta siyosatini amalga oshirish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Umumiy iqtisodiy tahlilning zarurligiga sabab shuki, monetar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish barcha muhim makroiqtisodiy hodisalar; pulning qadrsizlanishi, milliy ishlab chiqarishning umumiy qismi va mehnat resurslarining bandligi, to'lov balansi bilan



chambarchas bog'langan. Undan tashqari, Markaziy bank foiz (diskont) siyosatini, targetlash va boshqa usullardan foydalanib pul massasini boshqarib borishi mumkin.

Muomaladagi pul massasining hajmini, banklarning likvidligini muvofiqlashtirish va inflyatsiya sur'atlarini tushirish maqsadida Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy rezervlar me'yorini

oʻrnatib berish siyosatini amalga oshiradi. Minimal zahiralari bu tijorat banklari resurslarining Markaziy bankda majburiy saqlanishi zarur boʻlgan qismidir.

Majburiy zaxira (rezerv) talablari (inglizcha – “Reserve requirements”) – pul-kredit siyosatining anʼanaviy instrumenti hisoblanib, AQSh Federal Zaxira Tizimi (Federal Reserve System) tomonidan mamlakat bank tizimining likvidliligiga taʼsir etish maqsadida 1863 yilda ishlab chiqilgan¹¹. Bugungi kunda, dunyoning koʻplab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari (AQSh, Shveysariya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Braziliya va boshqalar)da majburiy zaxira talablari qoʻllanib kelinmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ham majburiy zaxira talablari pul massasini tartibga solish hamda mamlakat bank tizimining likvidliligiga taʼsir etishning muhim va taʼsirchan vositasi sifatida amaliyotda qoʻllanilmoqda. Mazkur amaliyot tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda alohida ochilgan hisobvaraqa majburiy tartibda depozitga pul mablagʻlari oʻtkazish orqali amalga oshiriladi¹².

Yaʼni, majburiy rezervlar tijorat banklari tomonidan jalb qilingan milliy va xorijiy valyutadagi depozit mablagʻlarga nisbatan oʻrnatilgan meʼyorlardan kelib chiqib, Markaziy bankdagi maxsus hisobvaraqa oʻtkazilishi lozim boʻlgan pul mablagʻlarini anglatadi. Xususan, ushbu instrument Markaziy bank tomonidan quyidagi maqsadlar uchun qoʻllaniladi:

- tijorat banklarining likvid mablagʻlari hajmini muvofiqlashtirgan holda, kreditlash faolligiga taʼsir koʻrsatish;
- tijorat banki bankrot boʻlgan sharoitda uning majburiyatlari yuzasidan hisoblashish;
- pul massasining oʻsish surʼatlarini tartibga solgan holda, pul massasining multiplikativ koʻpayishiga bevosita taʼsir koʻrsatish.

Bunda, Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 25 aprelda 3002-son bilan roʻyxatga olingan “Tijorat banklarining Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy

¹¹ <https://www.federalreserve.gov/monetarypolicy/0693lead.pdf>

¹² “Tijorat banklarining Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga oʻtkaziladigan majburiy rezervlari toʻgʻrisida”gi Nizom (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 25 aprelda 3002-son bilan roʻyxatga olingan), 1-bob: Umumiy qoidalar.

bankida depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlari to'g'risida”gi Nizomga muvofiq, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan Markaziy bankka o'tkazilishi lozim bo'lgan majburiy rezervlar hajmi (normativ miqdori) ni hamda depozitga o'tkazish tartibini belgilaydi.

O'z navbatida, majburiy rezervlarning normativ miqdorini hisoblashda Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining rezerv shakllantiriladigan majburiyatlariga nisbatan majburiy zaxira me'yorlari belgilangan bo'lib, 2019 yil 1 iyuldan:

milliy valyutadagi depozitlar uchun - 4%;

xorijiy valyutadagi depozitlar uchun - 14% etib belgilangan bo'lib, majburiy zaxira rezervlari har ikkala valyuta uchun ham milliy valyutada shakllantiriladi¹³.

Majburiy rezervlarning normativ miqdori — banklar tomonidan Markaziy bankka o'tkazilishi lozim bo'lgan majburiy rezervlar hajmi bo'lib, bunda majburiy rezervlarning normativ miqdori rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi o'rtacha miqdoriga majburiy rezervlar normativini ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Bundan tashqari, o'rtachalash koeffitsienti va majburiy rezervlarning o'rtachalashtirilgan miqdori kabi tushunchalar hamda ularni amaliyotda qo'llashdan ko'zlangan pirovard maqsadlar xususida ham to'xtalib o'tsak:

o'rtachalash koeffitsienti — majburiy rezervlar normativ miqdorining Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'ida saqlanadigan o'rtachalashtirilgan miqdorini aniqlashda foydalaniladigan qiymati 0 dan 1 gacha bo'lgan koeffitsient hisoblanadi.

majburiy rezervlarning o'rtachalashtirilgan miqdori — banklar tomonidan majburiy rezervlarning normativ miqdoriga nisbatan o'rtachalash koeffitsientini qo'llash orqali hisoblangan hamda banklarning Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlarida saqlash davri mobaynida saqlanishi lozim bo'lgan o'rtacha hisobdagi pul mablag'larining eng kam miqdoridir.

O'zbekistondagi joriy makroiqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, tijorat

¹³ www.cbu.uz.

banklarining likvidligini samarali tartibga solishda pul-kredit instrumentlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, bank tizimi likvidligini qo'llab-quvvatlash va to'lov tizimining barqaror ishlashini ta'minlashda majburiy rezervlash instrumentining samaradorligini oshirish maqsadida 2020 yilning 15 iyunidan boshlab majburiy rezervlar miqdoriga nisbatan amaldagi 0,35 o'rtachalash koeffitsienti 0,75 gacha oshirildi.

Bunda majburiy rezervlarning normativ miqdoriga nisbatan o'rtachalash koeffitsientini belgilash orqali Markaziy bankka o'tkazilishi lozim bo'lgan majburiy rezervlar miqdorining 75 foizini banklarning vakillik hisobvarag'ida qoldirishga ruxsat etiladi. Bank tizimiga taqdim etilgan ushbu likvidlik, birinchi navbatda to'lovlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar uchun resurs bazasi sifatida foydalaniladi. O'z navbatida, transmission mexanizmlar orqali pul bozorini yanada faollashtirgan holda bank tizimidagi qisqa va o'rta muddatli foiz stavkalarining pasayishiga xizmat qiladi.

Markaziy bank kelgusida bank tizimidagi likvidlikning joriy holati tahlilidan kelib chiqqan holda o'rtachalash koeffitsientini o'zgartirib borishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, majburiy zaxiralash instrumenti Markaziy bank pul-kredit siyosatining tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti bo'lgan minimal likvidlik darajasini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, bank tizimidagi likvidlik darajasini boshqarish va shu orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda keng foydalaniladi.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish siyosati bu to'g'ridan-to'g'ri kreditlash, veksellarni hisobga olish, qimmatbaho qog'ozlarni garovga olgan holda kreditlar berish va kredit auksionlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqqan holda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usullarda olib borilishi mumkin:

- tijorat banklarining ixtiyoridagi vekselarni hisobga olish yo'li bilan kreditlash;
- tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlar berish. Bunday kreditlar lombard kreditlar deyiladi.

- to'g'ridan-to'g'ri kredit berish usuli.



Kredit tashkilotlari faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklar bo'lgan hollarda ular Markaziy bankka kredit olish uchun murojaat qilishi va Markaziy bank kreditidan foydalanishi mumkin. Remoliyalashtirishning asosiy maqsadi, pul muomalasi va kredit munosabatlarining holatiga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Remoliyalashtirish siyosatini olib bora turib, Markaziy bank oxirgi kreditor sifatida maydonga chiqadi. O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank o'rnatgan qoidalarga asosan, quyidagi aktivlarni garovga olgan holda 3 oygacha bo'lgan muddatda kreditlar berishi mumkin:

- oltin, chet el valyutasi, xalqaro zahiralar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari va boshqa boyliklar;
- davlatning qarz majburiyatlari va davlat tomonidan kafolatlangan boshqa qarz vositalari.

Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan va Markaziy bank ular bilan ushbu qonun doirasida boshqa xil operatsiyalar o'tkazishi mumkin bo'lgan aktivlar, to'lanishiga banklar asosida kreditlar berishi mumkin.

Bank faoliyatida riskning iqtisodiy asoslangan chegaralardan chiqib ketmaslik bank sistemasi barqaror ishlashining muhim shartidir. Risk doiralarini cheklab qo'yish Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun rioya etilishi majburiy bo'lgan iqtisodiy me'yorlarni belgilab qo'yish orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy me'yorlarni, shu jumladan:

- kapitalning yetarlilik koeffitsientini;
- bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko'p miqdorini;
- yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko'p miqdorini;
- likvidlilik koeffitsientlarini va boshqalarni belgilaydi.

Markaziy bank iqtisodiy me'yorlarning o'zgarishi to'g'risida kamida bir oy oldin e'lon qiladi. Banklar va ularning filiallari banklarga oid qonun hujjatlarini, belgilab qo'yilgan iqtisodiy me'yorlarni buzgan taqdirda Markaziy bank ulardan ustav kapitalining eng kam miqdorining 0,1 foizigacha jarima undirish yohud ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.

Hisob-kitoblarni va o'tkazish operatsiyalarini bajarish. O'zbekiston Respublikasi hududida hisob-kitoblar naqd pulli va naqd pulsiz tarzda amalga oshiriladi. Jami pul aylanishining asosiy qismi naqd pulsiz to'lovlarga to'g'ri keladi. Bunda pulning harakati kredit muassasalaridagi hisob varaqlarga pul o'tkazish va o'zaro talablarni hisobga olish jarayonida sodir bo'ladi. Mahsulot sotish ishlarini bajarish, xizmat ko'rsatish yo'li bilan mablag' topish, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash, bankdan qarz olish va uni qaytarish, aholiga pul daromadlarini to'lash va ulardan foydalanish kabi xo'jalik munosabatlarining sohalari vositasida naqd pulsiz pul oboroti xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob varaqlari amal qilayotgan bank muassasalari orqali o'tadi. O'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan va hamma bank hamda mijozlar uchun majburiy bo'lgan qoidalar asosida olib boriladi. Ushbu qoidalarning bir tarzda qo'llanishi butun respublika hududida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlaydi.

Banklar faoliyatini tartibga solish va ularni nazorat qilishdan asosiy maqsad «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning 50-moddasiga muvofiq bank tizimini barqaror tutib turish, omonatchi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bank faoliyatiga ruxsatnoma (litsenziya) berishdir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus komissiyasi bu faoliyat bilan shug‘ullanishga da’vogarlarining birlamchi hujjatlarini ko‘rib chiqadi, pul bozorida ularning muomalaga tayyorligini, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga javob berishini tahlil qiladi va qaror ijobiy bo‘lgan taqdirda bank faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma beradi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojlanishini har tomonlama hisobga olib, kuzatib boradi. Kapitalning aynan bir xilligi, likvidlikka doir talablarni o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy me‘yorlarni, shuningdek kreditlash hajmi va limitlarini belgilaydi. Qonunda kredit tashkilotlarning hamma turlari uchun yagona mazmunga ega bo‘lgan iqtisodiy me‘yorlar guruhining bajarilishi nazarda tutiladi. Kapitalning yetarliligi, aktivlarning sifati, foydaliligi va likvidligiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli baholanadi, nochor banklar aniqlanadi.

Rasmiy oltin-valyuta zahiralarini saqlash. Xalqaro hisob-kitoblarda zahiradagi aktiv va kafolatli sug‘urta fondi vazifasini ado etish Markaziy bankning pul-kredit siyosatida valyuta-mablag‘laridan sharoitga qarab foydalanish imkonini beribgina qolmay, balki dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yo‘li bilan mamlakatimizning oltin valyuta zahiralarini qiymatini saqlab turish imkoniyatini yaratadi. Boshqa moliya muassasalari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valyutaga ega bo‘lish va valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga haqi borligiga qaramasdan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta zahiralarini saqlovchi asosiy depozitariy bo‘lib qolishi mumkin.

Hukumat maslahatchisi-xazina vakili vazifasi. Bu vazifa «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning 44-moddasida

mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumat bankiri sifatida davlat muassasalari va tashkilotlarining hisob varaqlarini yuritadi, ana shu hisob varaqlarda mablag'larni jamg'aradi va ulardan to'lovlarni amalga oshiradi: davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni o'tkazib turadi; davlatga bevosita qisqa muddatli ssudalar shaklida yoki davlat obligatsiyalarini xarid qilish tarzida kredit beradi; hukumat idoralarining topshirig'iga binoan oltin bilan yoki xorijiy valyutada operatsiyalar bajaradi.

45-moddada belgilab berilganidek, hukumat davlat sektoriga qarz ajratish masalalarida, kredit berishning ichki va tashqi manbalaridan mablag' olish rejalari to'g'risida Markaziy bank bilan maslahatlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning fiskal (xazina) vakili vazifasiga muvofiq hukumat hisob varaqlarini yuritar ekan (47-modda), hukumatning moliya operatsiyalarini amalga oshirishda ko'maklashadi, byudjet kirimlari va chiqimlari masalalari yuzasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda vakil sifatida ishlaydi, ular bo'yicha hisob varaqlarni yuritadi, davlat qarz majburiyatlari bilan bog'liq boshqa masalalarini hal etishda qatnashadi.

Tijorat banklariga kredit berish. Markaziy bank iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini bevosita kreditlamasada, u tijorat banklarining kredit zahiralari bozor usullari orqali samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun pul bozorining turli bo'g'inlarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki operatsiyalaridan, shu jumladan valyuta intervensiyasidan, ikkilamchi bozorda davlat qimmatli qog'ozlari bilan bo'ladigan operatsiyalaridan, kredit kimoshdi savdolaridan foydalanadi. Markaziy bank o'zi belgilagan shartlarga binoan oltin, chet el valyutasi, xalqaro rezervlar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari, davlatning qarz majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari, Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan aktivlar, to'lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellarini garovga olgan holda tijorat banklariga uch oygacha bo'lgan muddatda kredit berishi mumkin.

Tijorat banklariga kredit berishning eng ko'p tarqalgan bu turi banklarni qayta moliyaviy ta'minlash deb yuritiladi va u «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 30-moddasiga asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari va hukumat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking asosiy mijozlaridir. Boshqacha aytganda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarning banki hisoblanadi. Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o'z hisob varaqlaridan o'zaro hisob-kitoblar uchun foydalanadilar va undan tashqari naqd pul zarur bo'lganda ham ular Markaziy bankka murojaat qilishadi.

Pul emissiyasi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham pulni emissiyalash huquqiga ega, ya'ni u emissiya markazi hisoblanadi. Bu vazifa hozir ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunki chakana savdoda mahsulot haqini to'lash hamda qarz majburiyatlarini uzil-kesil uzish uchun mablag'ga ega bo'lishini ta'minlash uchun naqd pul zarur.

Tijorat banklarining kassa zahiralari jamg'arish va saqlash. Muomaladagi pul miqdori hajmini boshqarish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki jalb qilingan pul mablag'lari hajmiga qarab tijorat banklarida zahiralarning muayyan koeffitsientlarini belgilaydi. Pul-kredit vositasida boshqarishning samaradorligi, uning pul miqdori o'sish sur'ati va tuzilmasiga, shuningdek pulning qadrsizlanish darajasiga ta'siri majburiy zahiralash tizimining moslashuvchanligiga bog'liq. Ko'rib chiqilayotgan Qonunning 28-moddasiga muvofiq majburiy zahiralar alohida hisob varaqda naqd pul yoki omonatlar tarzida deponentga olinadi. Zahiralash tizimi tijorat banklariga likvidlik bilan bog'liq qisqa muddatli muammolarni hal etish imkonini beradi. Ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qaroriga binoan majburiy zahiralarga foizlar qo'shib qo'yilishi ham mumkin. Tijorat banklarining mablag'larini zahiralash talablariga amal qilish borasida javobgarligini oshirish uchun qonunda moliyaviy sanksiyalar (53- modda) ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to'lanmay qolgan pulni qonunda belgilangan

tartibda soʻzsiz undirib olish, shuningdek jarimalar solish huquqi berilgan.

Endi Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi toʻgʻrisida qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega. Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli xizmatlar va muassasalar tashkil etadi.

Markaziy bank Qoraqalpogʻiston Respublikasi poytaxtida, viloyatlarning markazlari va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan bosh boshqarmalar tuzadi.

Markaziy bank raisi Boshqaruvning raisi hisoblanadi. Boshqaruv aʼzolarini Markaziy bank raisi taqdimnomasiga koʻra, Oliy Majlisning Kengashi tasdiqlaydi.

Markaziy bank raisi Markaziy bank va uning Boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun javobgar boʻladi.

Bank – bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, toʻlovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablagʻlarini jalb etish, oʻz nomidan kreditlar berish boʻyicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti boʻlgan yuridik shaxs¹⁴.

Tijorat banklari oʻzlarining xoʻjalik mavqeiga koʻra aksionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga koʻra, faoliyatning biron bir turiga xizmat koʻrsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank boʻlishi mumkin.

Qonunchilik hujjatlari va iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari jamiyatdagi vaqtinchalik boʻsh pul mablagʻlarini jalb qilib, ushbu mablagʻlarni tegishli shartlar (toʻlovlilik, qaytarishlik, muddatlilik, taʼminlanganlik, maqsadlilik) asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga joylashtiradigan, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarga toʻlov hisob – kitoblarni amalga oshirish boʻyicha xizmat koʻrsatadigan tijorat tashkilotlari sifatida tasniflanadi.

Tijorat banklarining faoliyati tijoratga asoslangan boʻlib, ularning asosiy faoliyati yuqori darajada foyda olishga yoʻnaltirilib, oʻz foydasini korxonalar, tashkilotlar va aholi

¹⁴ <https://lex.uz/docs/-4581969>

ixtiyorida vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb qilib, ushbu mablag'larga ehtiyoji mavjud bo'lgan shaxslarga tijorat yo'sinda berish orqali foydasini shakllantiradigan o'ziga xos moliyaviy muassasa hisoblanadi.

ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA BANKLAR QUYIDAGI MEZONLAR BO'YICHA TAVSIFLANADI

Mulkiy jihatdan – davlat banki, aktsiyadorlik banki, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma banklariga bo'linadi. Banklarni mulkchilik nuqti nazardan tasniflanganda asosan ularning ustav kapitali tarkibida kimning ulushi 51 foizdan yuqori bo'lsa, bank shu shaxslarning nomlarini oladi.

Banklar bajaradigan funksiyasi (operatsiyalari) jihatidan –emission, tijorat, investitsion, ipotekali va jamg'arma banklar sifatida tasniflanadi

Banklar faoliyati xizmat ko'rsatadigan tarmoqlari, filiallarining soni, xizmat ko'rsatish doirasi, kapitalining hajmi nuqtai nazaridan ham tasniflanadi.

Huquqiy jihatdan – banklar ochiq va yopiq turdagi jamiyatlar sifatida tasniflanadi. Banklarning kapitalini asosiy ulushi yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keladi, ushbu banklar ochiq aktsiyadorlik yoki yopiq aktsiyadorlik banklari bo'lishi mumkin.

Banklar bajaradigan operatsiyalarining tabiati jihatidan –universal va ixtisoslashgan banklarga bo'linadi. **Universal banklar** banklar bajaradigan barcha operatsiyalarni bajaradi. Bunga misol sifatida tijorat banklarini keltirish mumkin. **Ixtisoslashgan banklar** esa iqtisodiyotning ma'lum tarmog'iga xizmat ko'rsatish va shu tarmoqni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Ixtisoslashgan tijorat banklar – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi.

Xalq banki - mamlakatda omonat ishlarini tashkil etishni, naqd pulsiz hisob-kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirishni, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berishni va shu kabi operatsiyalarni ta'minlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxonalar va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalarga kredit berishda qatnashadi, yig'ma valyuta rejasining ijrosini, valyuta resurslaridan tejab foydalanishini nazorat qiladi, shuningdek tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob-kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni ta'minlaydi.


Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashishi bo'yicha investitsion va ipoteka banklarni ajratib ko'rsatish lozim.

Investitsion banklar – maxsus kredit muassasalari bo‘lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo‘li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan davlat va tadbirkorlar) ga taqdim qiladi.

Investitsion kompaniyalar o‘zlarining qimmatli qog‘ozlarini chiqarish yo‘li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to‘playdi va ularni korxonalar (milliy va chet el)lar aksiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday kompaniyalar to‘liq investorlar manfaatini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo‘yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi.

Ipoteka banklar – bu ko‘chmas mulk (yer va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalar. Ipoteka bankning resurslari o‘zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingan ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi.

Huquqiy mavqeiga ko‘ra, faoliyatning biron bir turiga xizmat ko‘rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo‘lishi mumkin.



Barcha tijorat banklari zahira (rezerv)larining hajmi va tarkibi bo‘yicha Markaziy bank tomonidan o‘rnatiladigan ma‘lum talablarga javob berishi zarur.

Tarixiy taraqqiyot davomida banklar mablag'larni yig'ish, saqlab berish, kredit-hisob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini bajarib kelganliklari sabab, banklar kredit muassasa bo'lib, foyda olish maqsadida bank barcha risklarni o'ziga qabul qilgan holda operatsiyalarini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunining 1-moddasiga asosan "**Bank**-tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan, ya'ni:

-yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

-to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxsdir. Demak, bank barcha riskni o'z zimmasiga olib, yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb qilib, bank resurslarini tashkil qilgan holda, bu mablag'larni muddatida qaytarib berish, to'lov va ta'minlash shartlari asosida o'z nomidan ularni joylashtiradi hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi hisob-kitob va vositachilik operatsiyalarini olib boruvchi kredit muassasa hisoblanadi.


Ba'zi adabiyotlarda «bank-bu korxon», deb ham izoh beriladi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxon sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxon faoliyatiga shu jihatdan o'xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o'z faoliyatini o'z daromadini ko'paytirishga qaratadi, lekin korxonalar faoliyatidan farqli ravishda banklar shu asosida birinchidan, o'z ta'sischilari—aksiyadorlarining manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Tijorat banklariga, bizning fikrimizcha, shunchaki «korxon» emas, balki «maxsus korxon» deb qarash zarur. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali harakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o'z aksiyadorlariga, paychilariga foyda olishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga o'z xizmatlarini ko'rsatadilar.

Bank bu shunday korxonaki, unda xom ashyo bo'lib depozit va qo'yilmalar

hisoblansa, oxirgi tovar – bu berilgan ssudalardir. Depozit va qo‘yilmalar jalb qilingan qarz mablag‘lari, berilgan ssudalar esa – joylashtirilgan mablag‘lar bo‘lib hisoblanadi.



5.5-rasm. Tijorat banklarining daromadlari

Har xil jismoniy shaxslar va tashkilotlardan pul mablag‘larini jalb qilish uchun, qarz hajmiga qarab ma’lum summani foizlar shaklida to‘lash kerak. Bo‘lmasa mablag‘ qo‘yuvchilar yoki boshqa bankni tanlaydilar, yoki pul saqlashni boshqa shakllariga o‘tadilar: masalan, oltin yoki valyuta sotib olish, boshqa moliyaviy vositachilar xizmatlaridan foydalanish va boshqalar. Pul saqlash shaklini tanlashda mablag‘ qo‘yuvchini ikkita muhim omil - moliyaviy vositachilarning ishonchli ekanligi va daromadlash darajasi (qarzga to‘lanadigan foizlar) ko‘proq qiziqtiradi.

Boshqa tomondan, bank ssuda berganda uning summasiga qarab foiz shaklida to‘lov undiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining bozor munosabatlari sub’ektlari bilan aloqasi yanada kengayadi va chuqurlashadi. Bank bu holda barcha mablag‘lari harakatini boshqarib boradi.

Bu ikkita foiz stavkalari o‘rtasida farq - bank daromadining asosiy manbasi bo‘lib, iqtisodiy adabiyotlarda u “marja” nomi bilan yuritiladi.

Shunday qilib, marja - bu jalb qilinuvchi va joylashtiriladigan qarz va ssuda foiz stavkalari o‘rtasidagi farqdir.

Banklar mablag'larni jalb qilish va joylashtirish yo'li bilan barcha pul mablag'lari harakatini boshqarib boradi. Bankning asosiy faoliyati vositachilik bilan bog'liq bo'lib, u pul mablag'larni qarz beruvchidan qarz oluvchilarga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida xorijiy banklar va har qanday mulkchilik shakliga asoslangan banklar faoliyat ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari va ularning mulkchilik shakli turli mulkchilikka asoslangandir.

Odatda, O'zbekistonda banklar aksionerlik jamiyat ko'rinishida tashkil etiladi. Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat organlarining mablag'lari, jamoa, birlashmalar va fondlarining mablag'lari, garov va kreditga olingan mablag'lardan foydalanish mumkin emas.

Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi aksioner jamiyat tuzilishiga o'xshashdir. Tijorat banking oliy organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Bu yig'ilishlarda aksiyadorlarning vakillari va aksiyador korxonalarining rahbarlari ishtirok etadilar. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishga qo'yilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi ishtirok qilishi lozim.

Bankning boshqaruvini direktorlar kengashi amalga oshiradi. Unga qo'shimcha tarzda bank boshqaruvini kuzatish va nazorat qilish mas'uliyati ham yuklatilgan. Direktorlar kengashi a'zolarining tarkibi va saylanish muddati tijorat banking nizomi bilan belgilanadi.

Bank Kengashi bank faoliyatining asosiy yo'nalishini, kredit siyosati va banking boshqa rejalarini ko'rib chiqish, daromad, xarajatlar, foyda rejalarini tasdiqlash, shu'balarni ochish yoki yopish masalalarini ko'rib chiqish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Bank Boshqaruvi bank faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi. Bank boshqaruvi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va direktorlar kengashi oldida javobgardir. Aksionerlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruvi banking boshqaruv organlari hisoblanadi.

Bankka operativ rahbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanadi. Boshqaruv bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordirlar.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda tijorat banklar iqtisodiyotining to'lov mexanizmidagi yetakchi o'rin tutadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot to'lovlarni amalga oshirishni isloh qilish va rivojlantirish orqali mamlakatimiz to'lov tizimida tijorat banklarning o'rni kengaymoqda.

Undan tashqari tijorat banklar moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish, ya'ni qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni joylashtirish, sotib olish bilan shug'ullanishi, mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berish bilan shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari yuqorida keltirilgan funksiyalar asosida quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv operatsiyalar;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalari

va boshqa turdagi operatsiyalarni bajaradilar.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning hayotlari farovonligini ta'minlashda mikromoliyaviy xizmatlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z navbatida, aholi o'rtasida mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning kuchayishi mahalliy mikro kredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish va sifatli xizmat turlarini taklif etishni talab etadi. Jahon tajribasidan ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini faoliyatining dastlabki davrlarida ularning kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda tijorat banklariga muqobil ravishda nobank kredit tashkilotlarining ham ahamiyati kattadir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan respublikada faoliyat ko'rsatayotgan nobank kredit tashkilotlari, xususan, mikro kredit tashkilotlari

hamda lombardlar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, ular faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasi yanada takomillashtirilishi nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini va faoliyati ko'lamini kengaytirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» gi PQ-1438-sonli Qarorida, aynan, nobank tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab berildi. Bunda nobank tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish, mikrokreditlash va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish hajmlarini kengaytirish, nobank tashkilotlari va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari tarmog'ini kengaytirish, nobank tashkilotlarida hisob yuritilishini, ular faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullarini yanada takomillashtirish, axborot-aloqa texnologiyalarini joriy etish, nobank tashkilotlari xodimlarining malakalarini oshirish, mikromoliyalash sohalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni keng yoritish shular jumlasidandir.

5.3. Davlatning monetar siyosati va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati

Respublikada milliy valyutani mustahkamlash ishida **so'mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash** asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish va zarur ehtiyojlar hosil qilish orqali erishiladi. Bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirib, mahsulot sifatini yaxshilab borish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste'mol mollari sotishning umumiy hajmida milliy mahsulotlar hissasi oshirib boriladi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali so'mning barqarorligini ta'minlash chetdan mahsulot keltirishni inkor qilmaydi. Aholini sifatli chet el mollari bilan ta'minlash maqsadida import ham rag'batlantirib

boriladi. Soʻmning barqaror amal qilishi, uning har qanday valyutaga erkin almashtirilishi yetarli **valyuta zaxirasi** boʻlishiga bogʻliq. Unga erishishda korxonalar va barcha subʻektlarning, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur boʻlgan ragʻbatlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega. Jumladan, keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida roʻy berayotgan jiddiy tarkibiy oʻzgarishlar bu borada qulay imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda.

Soʻmning barqarorligini taʼminlashda undan **ehtiyotkorona va tejab-tergab foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablagʻlarning eng koʻp samara berishiga, olingan kreditlarning oʻz vaqtida qaytarilishiga erishish** muhim oʻrin tutadi.

Inflatsiyaga qarshi aniq oʻylangan siyosat oʻtkazish milliy valyutani mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Bu siyosat eng avvalo inflatsiya darajasini keskin kamaytirishga qaratilishi lozim. Bunda pulning qadrsizlanish darajasi ustidan katʼiy nazorat oʻrnatish hamda unga qarshi samarali tadbirlar qoʻllash hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻladi. Shu orqali pulning qadrsizlanishida maqbul surʼatni tanlashga erishiladi.

Inflatsiyaga qarshi siyosat negizini **pul miqdorining oʻsishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada oʻsishi bilan bogʻlab olib borishga** qaratilgan tadbirlar tashkil qilishi zarur. Chunki xarid qilish uchun mollar yetarli boʻlmagan holda aholi qoʻlida pulning ortiqcha koʻpayib ketishi inflatsiyaning yanada avj olib ketishiga, oxir- oqibatda inqirozlarga sabab boʻladi. Pul miqdori bilan birga narxlarning ham tobora oʻsib borishi muqarrar ravishda, uzoq davom etadigan giperinflatsiyani keltirib chiqaradi. Bu oʻz navbatida, milliy ishlab chiqarishning izidan chiqishi, aholi keng tabaqalarining qashshoqlashuvi va butun ijtimoiy tizimning barbod boʻlishi xavfini tugʻdiradi.



Soʻmning barqarorligini taʼminlashda **naqd pul emissiyasining oʻsishiga, aholi qoʻlida pulning harakatsiz turib qolishiga yoʻl qoʻymaslik** birinchi darajali ahamiyatga ega.

Bunda muomalaga chiqarilgan pul miqdorining oʻz vaqtida qaytarilishiga erishish, mahsulot ishlab chiqarishning oʻsishini taʼminlamagan korxonalariga kreditlar berilishiga yoʻl qoʻymaslik choralari koʻrilishi kerak.


Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham inflyatsion targetlash rejimini amalda tadbqiq etish rejalashtirilmoqda. Bu esa:

Past darajadagi va prognoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiya mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish uchun juda zaruriy omil hisoblanadi. Binobarin, inflyatsion kutilma tijorat banklari tomonidan kredit ajratishda undagi foiz stavkasiga qo'shiladi hamda yuqori inflyatsion kutilma kredit foiz stavkasining yuqori bo'lishiga olib keladi.

Tadbirkorlar qarz mablag' (kredit)lardan foydalanganliklari uchun hisoblangan foiz stavkalarining yuqori (yuqori inflyatsiya ta'sirida) bo'lishi, ularni qaytarish bilan bog'liq to'lovlarga ta'sir qiladi.

Agar foiz stavkalari (kredit uchun hisoblangan) yuqori bo'lsa, tadbirkorlar kamroq kredit oladilar. Bu esa ularning investitsiyaviy qobiliyatiga ta'sir etgan holda, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qiladi. Zero, biz bugun kiritayotgan investitsiyalar - ertangi kunda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish manbalarini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Target” so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, “maqsad” degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi. Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda.



5.6-rasm. Inflyatsion targetlash tizimining afzalliklari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tilayotgan bo'lib, 2023 yilda 5 foiz darajadagi inflyatsion maqsad (target)ga erishish rejalashtirilgan.

Inflyatsion targetlash rejimini amalga oshirishda quyidagilar maqsad qilingan:

inflyatsiyaning doimiy targetini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish (inflyatsiya, uning omillari hamda ko'zlangan inflyatsion target haqida aholini muntazam ravishda xabardor qilish)

inflyatsion jarayonlarni boshqarish va pul bozorida foiz stavkalarini tartibga solish maqsadida pul-kredit siyosati bo'yicha instrumentlardan (REPO va valyutaviy svop auksionlari, depozit auksionlari, hamda Markaziy bank obligatsiyalarini joylashtirish bo'yicha auksionlar) keng miqyosda foydalanish;

pul-kredit siyosati sohasida ob'ektiv qarorlar (xo'jalik yurituvchi sub'ektlar holatini tahlil qilish: uy xo'jaliklari sohasi, tadbirkorlik sohasi, davlat boshqaruvi sohasi va tashqi dunyo) qabul qilish uchun batafsil makroiqtisodiy tahlil qilish hamda ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda prognozlash;

pul-kredit siyosati maqsadlari (narxlar barqarorligi, kreditlarning ommabopligi, past darajadagi inflyatsiya, aholining milliy valyutaga bo'lgan

ishonchini oshirish va hokazo)ni keng jamoatchilikka yetkazish uchun kommunikatsiyaviy siyosatni takomillashtirish, makroiqtisodiy holatni prognoz qilish imkoniyatini ta'minlash hamda bozor ishtirokchilari ishonchini shakllantirish.

Davlatning kredit tizimi ustidan ham ma'lum nazorat o'rnatishi muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun pul emissiya qilish huquqiga ega bo'lgan va pul muomalasini tartibga soladigan Markaziy Bank tashkil etilgan. Bundan tashqari, davlat ixtiyorida bir qancha ixtisoslashgan banklar bo'lishi lozim.

Oqibatda, ishbilarmonlarning bank operatsiyalarini kredit va moliyaviy tizim orqali tartibga solish imkoniyati vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida kredit-pul siyosati sohasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish asosiy vazifalar qilib belgilandi:

- Markaziy bank boshchiligida hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari hamda vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoitlarni yaratish;

- barqaror pul muomalasini ta'minlash, kredit va nakd pul emissiyasi, jami pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash;

- O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratish.

Ushbu ustuvor yo'nalish va chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Uning asosida ikki bosqichli bank tizimi amalda shakllandi. Markaziy bank emissiya banki bo'lib, uning zimmasiga boshqa rivojlangan mamlakatlardagi markaziy banklarga xos bo'lgan vazifalar yuklatildi. Sobiq tarmoq doirasida ish yurituvchi davlat banklari tugatilib, Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banki ixtisoslashtirilgan hissadorlik-tijorat banklariga aylantirildi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tuzildi va u muvaffaqiyatli ish olib bormoqda.

Hozirgi davrda, jahon bank amaliyotida pulga bo‘lgan talab va taklifni, xususan, pul massasi, moliya bozorlari hamda bank tizimi likvidliligini samarali tartibga solishda ochiq bozordagi operatsiyalar, hisob stavkasi siyosati, majburiy zaxiralar siyosati, valyuta siyosati kabi bozor iqtisodiyotining bir qator zamonaviy vosita va mexanizmlari keng qo‘llanmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunda monetar siyosatning: ochiq bozordagi operatsiyalari; Markaziy bankning hisob operatsiyalari; Markaziy bankning operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalari; majburiy rezerv talablari va Markaziy bankning qayta moliyaviy ta‘minlash kabi vositalari qayd etilgan.

Narxlar barqarorligini ta‘minlash vazifasi Markaziy bankning bosh maqsadi etib belgilanib, Markaziy bankning mustaqilligi va institutsional rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha tegishli choralar nazarda tutilgan.

Qayd etish lozimki, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yondashuvlarining qayta ko‘rib chiqilishi davrida shakllanayotgan yangi voqeliklarda pul-kredit sohasidagi o‘zgarishlarning aholi va tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishi va qo‘llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o‘rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosatini rivojlantirish va amalga oshirish Konsepsiyasi kommunikatsiyalar kanalining jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda inflyatsion targetlash rejimini amaliyotga joriy etishdagi yetakchi roli inobatga olingan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi inflyatsion targetlashga o‘tishning konseptual asoslarini hamda ushbu pul-kredit siyosati rejimini amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish uchun zaruriy sharoitlar yaratish bo‘yicha o‘rta muddatli rejalarni keng jamoatchilikka yetkazish va batafsil tushuntirishga qaratilgan¹⁵.

Pul-kredit siyosatining vositalari - Markaziy bank tomonidan pulga bo‘lgan talab va taklifni tartibga solish hamda pul-kredit siyosatini amalga oshirish mexanizmidir. O‘z navbatida, ushbu vositalar bevosita va bilvosita turlarga bo‘linadi. Bevosita vositalar – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga

¹⁵ <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>

nisbatan foiz stavkalari yoki kredit miqdorini belgilash va cheklashdan iborat boʻlgan maʼmuriy usullardir. Bilvosita vositalar esa – Markaziy bank va tijorat banklari oʻrtasida ixtiyoriy ravishda foydalaniladigan, yaʼni bozor orqali pulga boʻlgan talab va taklifni oʻzgartirish, muomaladagi pul massasi miqdori va banklarning toʻlovga qobiliyatligini tartibga solish usulidir.

Markaziy bank asosiy stavkasi (qayta moliyalash stavkasi) – inflatsion targetlash rejimi doirasida pul-kredit siyosatini yuritishning asosiy instrumenti boʻlib, Markaziy bankning tijorat banklari bilan amalga oshiradigan pul-kredit operatsiyalari boʻyicha moʻljal foiz stavkasi hisoblanadi. Ushbu stavkani oʻzgartirish orqali Markaziy bank iqtisodiyotda narxlar barqarorligini taʼminlash uchun zarur boʻlgan pul-kredit sharoitlarini belgilab boradi.

Markaziy bankning tijorat banklari bilan likvidlikni taqdim etish va jalb etish boʻyicha asosiy operatsiyalari (muddati 2 haftagacha boʻlgan depozit, REPO va SVOP auksionlari) asosiy stavka doirasida amalga oshiriladi va banklararo pul bozoridagi operatsiyalarga taʼsiri orqali bank xizmatlari (depozitlar va kreditlar) boʻyicha foiz stavkalarining belgilanishida muhim omillardan hisoblanadi.

2-jadval.

Markaziy Bankning qayta moliyalash stavkasi¹⁶

AMAL QILISH MUDDATI	%
17.03.2022...	17%
11.09.2020 — 17.03.2022	14
15.04.2020 — 11.09.2020	15
25.09.2018 — 14.04.2020	16
28.06.2017 — 24.09.2018	14
01.01.2015 — 27.06.2017	9
01.01.2014 — 31.12.2014	10
01.01.2011 — 31.12.2013	12
15.07.2006 — 31.12.2010	14
21.12.2004 — 14.07.2006	16
05.07.2004 — 20.12.2004	18
10.09.2003 — 04.07.2004	20
16.07.2003 — 09.09.2003	24

¹⁶ <https://cbu.uz/uz/statistics/>

01.01.2002 — 15.07.2003	30
01.07.2000 — 31.12.2001	24
01.06.2000 — 30.06.2000	27,6
01.05.2000 — 31.05.2000	28,8
01.04.2000 — 30.04.2000	30
01.01.1998 — 31.03.2000	36
01.11.1997 — 31.12.1997	30
01.01.1997 — 31.10.1997	39,6
01.08.1996 — 01.12.1996	48
01.07.1996 — 31.07.1996	60
01.08.1995 — 30.06.1996	84
01.07.1995 — 31.07.1995	120
20.03.1995 — 30.06.1995	300
01.02.1995 — 19.03.1995	250
01.10.1994 — 31.01.1995	225
02.05.1994 — 30.09.1994	150

Bevosita vositalarga - foiz stavkalarini chegaralash, maqsadli kreditlar, har bir bank uchun kreditning yuqori chegarasini belgilash kabi ma'muriy usul va choralar kiradi. Ular bir qator kamchiliklarga ega bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos kelmaydi. Xususan, ular har bir bankka nisbatan qo'llanuvchi yakka tartibdagi nazorat qilish chorasi bo'lib, moliya bozorida raqobatni bo'g'ib qo'yadi, moliya sohasining rivojlanishini susaytiradi va banklarning moliyaviy vositachilik rolini pasaytiradi. Shuningdek, bir qator banklar ustidan nazoratning o'rnatilishi natijasida alohida tarmoq va hududlarda kreditlashtirish samarasini pasaytiradi, katta miqdordagi moliyaviy mablag'larning nazorat qilib bo'lmaydigan sohaga, ya'ni xufiyona iqtisodiyotga yoki xorijga chiqib ketishiga olib keladi.

Bilvosita vositalarga - ochiq bozordagi operatsiyalar (davlatning va Markaziy bankning qimmatli qog'ozlarini birlamchi bozorlarda sotish), ikkilamchi bozordagi operatsiyalar (bevosita oldi-sotdi yoki REPO operatsiyalari), qayta moliyalash siyosati, majburiy zaxira talablari, valyuta siyosati, kredit auksionlari, valyuta svoplari, veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi, lombard yoki overdraft mexanizmlari va boshqalar kiradi. Ular bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladi va bevosita vositalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, Markaziy

bankka pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish, pul massasi, moliya bozorini samarali tartibga solish, davlatning kreditni taqsimlash va pul-kredit orqali boshqarish jarayonlariga aralashuvini kamaytirish, moliya bozorining rivojlanishi va kengayishiga, banklarning vositachilik rolini oshirish, kapital qo'yilma va moliyaviy jamg'armalar hajmining ko'payishiga qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Markaziy bank o'zining va davlatning qimmatli qog'ozlarini, xorijiy valyutalarni erkin sotish va sotib olish, mablag'larni depozitlarga jalb qilish va qaytarish, majburiy zaxira talablari me'yorini va qayta moliyalash stavkasini o'zgartirish orqali banklarning moliyaviy holatiga ta'sir qiladi (3-jadval).

3-jadval

Monetar siyosat vositalarining turlari

Bevosita vositalar	Bilvosita vositalar
Foiz stavkalarini chegaralash	Ochiq bozordagi operatsiyalar
Maqsadli kreditlar	Majburiy zaxiralar
Har bir bank uchun kreditlash miqdorini belgilash	Veksellarni qayta hisobga olish mexanizmi
Har bir bank uchun hisobga olish me'yorlarini belgilash va boshqalar	Qisqa muddatli depozitlar mexanizmi
	Kredit auksionlari
	Lombard va overdraft mexanizmlari
	Valyuta SVOPlari va bevosita oldi-sotdi operatsiyalari

*Manba: Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari.

Markaziy bank yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi hajmini iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan miqdorgacha kamaytiradi. Pul massasining kamayishi hisobiga inflatsiya darajasi pasayadi va milliy valyuta kursining barqarorligi oshadi. Bu esa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchining tobora oshishiga, mamlakatda jamg'armalar va iqtisodiy faollikning o'sishi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratadi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, pul-kredit siyosatini amalga oshirishda bilvosita vositalar ixtiyoriy ravishda qo'llanilishi va sonining ko'pligi jihatidan bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob berishi bilan bevosita vositalarga nisbatan afzalligi yaqqol ko'rinmoqda. Shu bois hozirgi paytda jahonning eng taraqqiy etgan davlatlarida

ham pul-kredit siyosatining bilvosita vositalarini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Pul muomalasi – tovarlar aylanishiga hamda notovar tavsifidagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.

Pul tizimi – tarixan tarkib topgan va mamlakat milliy qonunchiligi bilan mustahkamlangan pul muomalasini tashkil qilish shakli.

Inflyatsiya – qog'oz pul birligining qadrsizlanishi.

Pul muomalasi – tovarlar aylanishiga hamda notovar tavsifidagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.

Pul tizimi – tarixan tarkib topgan va mamlakat milliy qonunchiligi bilan mustahkamlangan pul muomalasini tashkil qilish shakli.

Inflyatsiya – qog'oz pul birligining qadrsizlanishi.

Kredit – bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

Foiz normasi (stavkasi) – foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.

Bank krediti – pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) beriluvchi pul ssudalari.

Xo'jaliklararo kredit – bir korxonalar (muassasa) tomonidan ikkinchisiga berilib, ularning kapital qurilish, qishloq xo'jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiluvchi qarz mablag'lari.

Tijorat krediti – korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosan to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida bir-biriga beradigan kreditlari.

Iste'mol krediti – xususiy shaxslarga, avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari sotib olish uchun ma'lum muddatga beriluvchi qarz mablag'lari.

Ipoteka krediti – ko'chmas mulklar (er, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi qarz mablag'lari.

Davlat krediti – kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadi.

Xalqaro kredit – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakati.

Lizing – odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat kreditning pulsiz shakli.

Faktoring – boshqa iqtisodiy sub'ektlarning qarzdorlik buyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari.

Forfeyting – uzoq muddatli faktoring munosabatlari.

Trast – mijozlarning kapitallarini boshqarish bo'yicha operatsiyalari.

Suzuvchi valyuta kursi yoki o'zgaruvchan valyuta kursi - valyutaning qiymatining valyuta bozoriga qarab o'zgarishiga ruxsat berilgan valyuta kursi rejimi. Suzuvchi valyuta kursidan foydalanadigan valyuta suzuvchi valyuta deb nomlanadi.

Valyuta intervensiyasi — mamlakat markaziy bankining valyuta bozoriga va valyuta kursita chet el valyutasining katta summasini sotib olish yo'li bilan aralashuvi. Mamlakat o'z valyutasi kursini oshirishdan manfaatdor bo'lsa, bank va xazina o'z ixtiyoridagi chet el valyutasini sotib, milliy valyutani xarid qiladi; o'z valyutasi kursini pasaytirmoqchi bulsa, chet el valyutasini ko'p miqdorda sotib oladi, milliy valyutani esa sotadi.

Repo operatsiyasi - qimmatli qog'ozni ma'lum vaqtdan keyin ushbu shartnomada oldindan belgilangan narxda qayta sotish majburiyati bilan sotib olish bo'yicha bitim.

CVOP operatsiyasi- turli mamlakatlarning ikki markaziy banklari o'rtasida valyutalarni belgilangan kurs bo'yicha o'zaro almashish bo'yicha kelishuv.

TAKRORASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pul nima va u qanday vazifalarni o'taydi?
2. Pul muomalasi qonunini tushuntirib bering.
3. Pul muomalasi davlat tomonidan qanday tartibga solinadi?
4. Pul emissiyasi nima va u qanday nazorat qilinadi?
5. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?
6. Pul agregatlari nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
7. Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
8. Talab va taklif inflyatsiyalarining grafikdagi ko'rinishlarini tasvirlang va izohlang.
9. Kredit nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
10. Kredit turlarini izohlab bering.
11. Markaziy bank qanday vazifalarni bajaradi?
12. Monetar siyosat nima?
13. Monetar vositalar orqali iqtisodiyot qanday tartibga solinadi?
14. O'zbekistonda pul-kredit vositalar orqali davlat iqtisodiyotni qanday tartibga solmoqda?

MUSTAQIL ISH

1. Muomaladagi tovarlar narxining yig'indisi 300 ming so'm, kreditga sotilgan tovarlar narxining yig'indisi 200 ming so'm, to'lov muddati kelgan tovarlar narxi yig'indisi – 10 ming so'm, qoplangan to'lovlar – 15 ming so'm. pul birligi so'm 1 yilda o'rtacha 25 oborot qiladi. Muomila uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlang? Agar muomilaga 15 ming so'm chiqarilsa, iqtisodiyotda qanday o'zgarish bo'ladi?

2. Milliy bankimiz filialida qog'oz pullar 215 so'mni tashkil etsin. Jamg'arma kassalar hisobidagi qo'yilmalar – 800 so'm bo'lsa, chek qo'yilmalar - 1615 so'm

bo'lsa mayda muddatli qo'yilmalar 2382 so'm bo'lsa, yirik muddatli qo'yilmalar 620 so'm bo'lsa M1, M2, M3 pul agregatlarini hisoblang.

3. Tovar pullardan qog'oz va kredit pulga o'tishning afzalligi nimada? Tovar pullarga qisman qaytish mumkinmi?

4. Agar muomilada barcha naqd pullar yo'q bo'lsa, biz puldan muomila vositasi sifatida foydalanishdan to'xtaymizmi?

8. Sizing 3 mln. naqd pulingiz bor. O'rtog'ingizning esa 3 mln. so'm narxlangan shahar chetida uyi bor. Kimning mulki, boyligi ko'proq likvidlikka ega? Har doim ham mulkning likvidligi foyda keltiradimi?

Foydalanish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-582-son. 21.12.1995.

2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki To'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida Qonuni O'RQ-582-son 11.11.2019.

3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-580-son. 07.11.2019.

4. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida" gi Qonuni. O'RQ-573-son. 15.11.2019.

5. Theodore H. Cohn, Anil Hira. Global Political Economy Theory and Practice. 8th Edition. Copyright Year 2021.

6. Hunt E.K. and Mark Lautzenheiser. History of Economic thought. Copyright. by M.E. Sharpe, Inc. 2011

7. Peter Drahos., Regulatory theory: foundations and applications, Australian National University Press, 2017.

8. Кушлин В.И. Государственное регулирование рыночной экономики. Под ред. В.И.Кушлина. - М: Экономика, 2016. – 495 с

9. Abulqosimov H. P. Iqtisodiyotni davqlat tomonidan tartibga solish T. :Noshirlik yog'dusi, 2018. - 519 bet

10. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H., Topildiyev S.R. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. Darslik.- T.: “Iqtisodiyot nashriyoti ”, 2019. – 425 bet.

Internet saytlari va foydali havolalar:

1. www.press-service.uz. -O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
2. www.gov.uz. – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
3. www.lex.uz. – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
4. www.stat.uz. – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
5. <https://finlit.uz/uz/>
6. https://www.profiz.ru/peo/4_2012/ceny_za_rubezhom/
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-regulirovaniya-tsen-v-rossii-i-za-rubezhom/viewer>
8. <https://be5.biz/ekonomika1/r2015/1436.htm>
9. <https://review.uz/uz/post/cenovaya-stabilnost-v-uzbekistane>
10. <https://lex.uz/docs/-619936?ONDATE=23.05.1996>
11. <https://lex.uz/docs/4600824?query=%D0%B2%D0%B0%D0%BB%D1%8E%D1%82%D0%B0>
12. <https://cbu.uz/oz/monetary-policy/concept/>